



INSON VA TAQDIR TO‘QNASHUVI

(“Shoh Edip” asari misolida)

Sharipova Zarina Zafar qizi,

TerDU talabasi

Ilmiy rahbar: S. Tuliboyev,

TerDU O‘zbek adabiyotshunosligi

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson va taqdir o‘rtasidagi ziddiyat muammosi “Shoh Edip” tragediyasi misolida tahlil qilinadi. Asarda Edip shaxsiy irodasi, aqli va axloqiy mas’uliyati bilan muqarrar taqdir o‘rtasidagi murakkab to‘qnashuv yoritiladi. Tadqiqotda fojeaning dramatik qurilishi, qahramon xarakteri evolyutsiyasi hamda antik tafakkurdagi taqdir konsepsiyasining badiiy talqini ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *inson, taqdir, fojea, antik dramaturgiya, Edip obrazi.*

Annotation

This article analyzes the conflict between human agency and fate in Oedipus Rex. The study explores the complex confrontation between Oedipus’s personal will, intellect, and moral responsibility and the inevitability of destiny. Particular attention is given to the dramatic structure of the tragedy, the evolution of the protagonist’s character, and the artistic interpretation of fate in ancient thought. The paper also examines the dialectical relationship between free will and fatalism within the philosophical framework of classical tragedy.

Keywords: *human being, fate, tragedy, ancient drama, Oedipus.*

Qadimgi yunon adabiyoti inson tafakkurining eng qadimiy va sarmazmun manbalaridan biri hisoblanadi. Yunon tragediyasining eng mashhur namoyondasi Sofokl 496-yilda Afina shahri yaqinidagi Kolon degan joyda tug‘iladi. Uning otasi



qurol-yarog', aslaha korxonasining egasi, zamonasining badavlat, obro'li kishilaridan biri bo'lgan. Adib yoshligidan yaxshi tahsil oladi. Sofokl Afinaning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim rol o'ynadi. U Periklga yaqin bo'lganligi va Afinaning demokratik usul idorasiga xayrixohlik bilan qaraganligi uchun bir necha yil davlat xazinaboni bo'lib ishlaydi.

“Shoh Edip” – yunon dramaturgi Sofokl qalamiga mansub tragediya. “Shoh Edip” tragediyasida qadimgi yunon mifologiyasidan keng foydalanilgan. Afinalik yozuvchi Sofoklning ushbu asari hozirgi kungacha saqlanib qolgan eng zalvorli, o'lmas, nodir asardir va jahon teatri sahnasidan tushmay keladi. Muallif vafotidan yigirma asr o'tgan bo'lsa-da, u o'z mashhurligini, qadr-qimmatini yo'qotmagan. Sofoklning zamondoshlari va donishmand Arastu ham ushbu spektaklni “Mualliflik mahoratining cho'qqisi” deb hisoblaganlar. Bu tragediyani Asqad Muxtor 1958-yilda Moskva shahrida “Художественная литература” nashriyotida chop etilgan ruscha tarjimasidan o'zbekchaga o'giran. Ushbu asar o'zbek adabiyotidagi ilk va yagona tarjimadir. Shunday qilib, “Shoh Edip” tragediyasi 1979-yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan. Bu asar taqdiri qudratli xudolar tomonidan boshqarilgan odamning baxtsizliklari haqidagi asardir.

“Shoh Edip” asari haqida Freyd shunday yozadi: “Shoh Edip” asari antik dunyo yunon tomoshabinini larzaga solishining asosiy sababi, e'tirof etilayotgandek, taqdir bilan inson o'rtasidagi to'qnashuvdir... Edipning taqdiri – bu ilohiy hukm sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Sofokl bu asarga kuchli psixologik mahorat bilan badiiy ishlov beradi. Asar real muhitga shunchalik yaqin tarzda yozilganki, voqealar rivojida, har bir qahramon qiyofasida, ularning ong osti kechinmalarida hayotiy haqiqatlarni korishimiz mumkin.

Avvalo, Edip obrazi haqida to'xtalish lozim. Edip so'zining ma'nosi – “*oyog'i yallig'langan*” degan ma'noni anglatadi. U oddiy hukmdor emas. U aqli, jasorati va qat'iyati bilan Sfinks jumbog'ini yechib, xalqni halokatdan qutqargan qahramon sifatida maydonga chiqadi. Xalq uni qutqaruvchi deb biladi va unga ishonadi. Edip



ham o'zini xalq oldida mas'ul his qiladi. Shuning uchun Fivada vabo va ocharchilik boshlanganda, u bu kulfatlarni oddiy hodisa sifatida qabul qilmaydi. U muammoning ildizini topishga qat'iy bel bog'laydi. Aynan shu qat'iyat uning buyukligi bilan birga fojeasining ham sababchisiga aylanadi.

Qismat masalasi tragediyaning markazida turadi. Bashoratga ko'ra, Edip otasini o'ldirib, onasiga uylanadi. Ota-onasi bu falokatdan qutulish uchun chaqaloqni o'ldirmoqchi bo'ladi. Edip esa voyaga yetgach, Korinfni tark etib, ota-onam deb bilgan insonlardan uzoqlashadi. U yomonlikdan qochaman deb o'ylaydi. Ammo inson qismatdan qochaman degan sari, unga yaqinlashib boradi. Bu asar orqali qadimgi yunon tafakkuridagi *"taqdir muqarrarligi"* g'oyasi ifodalanadi.

Shu bilan birga, tragediyani faqat qismat bilan izohlash yetarli emas. Edipning shaxsiy xarakteri ham muhim rol o'ynaydi. U tez jahli chiqadigan, shubha qiluvchan, lekin adolatparvar inson. Agar u Tiresiyning so'zlarini eshitib, tekshiruvni to'xtatganida, balki haqiqat ochilmas edi. Lekin u bunday qila olmaydi. Chunki u adolatni hamma narsadan ustun qo'yadi. Demak, fojea nafaqat qismat, balki insonning o'z fe'l-atvori bilan ham bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, Iokasta obrazi ham chuqur ramziy ma'noga ega. U avval bashoratlarga ishonmaydi, ularni inkor qiladi. Layning o'limi tasodifiy, qaroqchilar ishi deb hisoblaydi. Ammo haqiqat asta-sekin ayon bo'lgach, u chidab turolmaydi va o'z joniga qasd qiladi. Edipning o'z ko'zlarini o'yishi ramziy ma'noga ega. U ilgari ko'rib turib haqiqatni anglamagan edi, endi esa haqiqatni anglab, ko'rishni istamaydi. Ko'zlarini yo'qotishi – bu ichki ko'rishning, haqiqatni anglashning belgisi.

Tragediyaning yana bir muhim jihati – insonning javobgarligi. Edip bilmagan holda jinoyat qilgan bo'lsa ham, u o'zini aybsiz deb hisoblamaydi. U o'zini jazolaydi va shahardan badarg'a qilinishga rozi bo'ladi. Bu qadimgi yunon axloqiy qarashlariga xos xususiyatdir: ayb bilib yoki bilmay qilinganidan qat'i nazar, javobgarlik mavjud.



Asar bugungi kunda ham dolzarb. Chunki unda ko‘tarilgan savollar – inson o‘z taqdirini o‘zgartira oladimi, haqiqat har doim ham baxt keltiradimi, inson o‘z xatolari uchun qanday javob berishi kerak – hanuzgacha muhim. Edip timsolida insonning buyukligi va ojizligi birlashadi. U bir paytning o‘zida ham qahramon, ham fojea qurboni.

Xulosa qilib aytganda, “Shoh Edip” — inson hayoti, taqdir va haqiqat o‘rtasidagi murakkab munosabatni ochib beradigan buyuk tragediyadir. Asarda inson o‘z qismatidan qochishga harakat qilsa ham, baribir taqdir yozgan yo‘ldan chetlasha olmasligi g‘oyasi ilgari suriladi. Edip yoshligidan bashoratdan qutulmoqchi bo‘ladi, lekin aynan shu urinishlari uni fojia sari yetaklaydi. Bu orqali asar inson irodasi va qismat o‘rtasidagi ziddiyatni chuqur yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sofokl. Shoh Edip. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
2. Sofokl. Oedipus Rex. – London: Penguin Classics, 2003.
3. Aristotel. Poetika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2010.
4. Aristotle. Poetics. – New York: Dover Publications, 1997.
5. V.G. Belinskiy. Adabiyot nazariyasi va tragediya haqidagi maqolalar. – Moskva: Nauka, 1984.
6. A.F. Losev. Antik adabiyot tarixi. – Moskva: Vysshaya shkola, 1972.
7. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Sofokl” maqolasi. – Toshkent, 2000–2005.
8. Qodirov, B. Jahon adabiyoti tarixi (Antik davr). – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
9. Karimov, N. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2012.